



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa’dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN’IY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O’RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O’ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA “ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)” MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdukarimovna	
Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’LLARI	42
Umarova Dilfuza Rahmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O’RNI	64
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O’RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI VA TASHQI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI	76
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Quvondiqov Shohboz Normamat o’g’li	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI	81
Musurmonqulov Muhammad Ural o’g’li	
TEMIR YO’L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI	86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	97
Sardor Kuvandikov ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI VA XALQARO Tajribalar Qiyosiy Tahlili	117
G'afforov Kamronbek “O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI” AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	123
Bobojonova Zarnigor Shokirovna MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILYI KOMPONENTLARI.....	132
Muxitdinov Xudayar Suyunovich Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI	137
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH	141
Maxmudov Omon To'xtayevich RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI.....	147
Pardayev Orifjon Charshamiyevich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR Tajribalaridan FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	152
Omonova Zarina Xudoymurodovna RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (Shartli “suv ta'minot servis” AJ misolida).....	160
Doniyorova M. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	164
Komilova Shaxnoza Komiljon qizi SUN'YI INTELLEKT ASOSIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA XODIMNING QIYMAT YARATISH DARAJASINI BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN MODEL (EVC1)	169
Xaydarova Malika Shokirjon qizi ГОСУДАРСТВЕННАЯ ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА И МЕХАНИЗМ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ	174
Нодира Илхамовна Саидахмедова Жамолiddин Ярашевич Нуриллаев THE RELATIONSHIP BETWEEN FRUGALITY AND INNOVATION: A THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PERSPECTIVES.....	181
Allaberganov Zakir Gaibovich Alimova Guzal Abdulkhakimovna BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODEL.....	188
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	



AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	196
Xamroyev Anvar Ashurovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTI ISHLAYDIGAN BIZNES SUBYEKTLARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH	202
Ismaylov Kuvatbay Sarsenbayevich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA FISKAL INSTRUMENTLARNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	206
Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI BOSHQARISH	212
Hamroyeva Feruza Azizjon qizi	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	217
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING IQTISODIY MAZMUNI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	226
Sirojev Nurbek G'ulomiddin o'g'li	
EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI.....	231
Nurmatov Samandar G'ayratovich	
TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR (FDI)NING ROLI VA UNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARI	238
Bau Long	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ КОМПЛЕКС РЕГИОНА КАК ОБЪЕКТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ	244
Axrarova Shodiyxon Ja'farxon kizi	
PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING KOMPLEKS USLUBIYATI	247
Djurayev Davlat Djonibekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY AMALIYOTDAGI HOLATI TAHLILI	250
Raxmanova Laylo Baxodirovna	
SOLIQ QARZDORLIGINI HISOBLASH VA UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SUBYEKTLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	256
Payziyev Hamid Orziqulovich	
PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	260
A.A. Ismailov	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRI	266
Elmurodov Shohzod Shavkatovich	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATI — MILLIY IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY INSTRUMENTI SIFATIDA.....	272
A.A. Ismailov	
ETNOGRAFIK RESURSLARDAN FOYDALANISHNING STRATEGIK BOSHQARUV TAMOYILLARI ASOSIDA TURIZM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	278
Axmedov Ikrom Akramovich	
O'ZBEKISTON TASHKILOTLARIDA UCHRAYDIGAN BOSHQARUV MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI	285
Abiyev Jahongir Ne'matovich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNING NAZARIY MODEL VA ILMIY YONDASHUVLARI.....	290
Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich	



O'ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQAMLI SALOHİYATINI BAHOLASH: RSI INDEKSI ASOSIDA ILMIY TAHLIL.....	294
Odinayev Nuriddin Ramozon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY QIMMATLI QOG'OZLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	300
Hakimov Ikrom Izzatillo o'g'li	



O'ZBEKISTONDA ISLOMIY QIMMATLI QOG'OZLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Hakimov Ikrom Izzatillo o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Menejment fakulteti, Korporativ boshqaruv yo'nalishi talabasi

E-mail: ikromjonh02@gmail.com

Tel.: +998 93 652 05 17

Ilmiy rahbar: Kenjayeva Umriya Faxritdinovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Korporativ boshqaruv kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida islomiy qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish istiqbollari, mavjud imkoniyatlar hamda ularni samarali ro'yobga chiqarish mexanizmlari tahlil qilingan. Xususan, sukuk qimmatli qog'ozlarining iqtisodiy mohiyati, xalqaro amaliyotdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda islomiy kapital bozorini shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillar, jumladan, normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, malakali mutaxassislar va islom moliyasi ekspertlari salohiyatini rivojlantirish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqot natijasida Malayziya, Indoneziya va Birlashgan Arab Amirliklari tajribalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda islomiy qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: islomiy moliya, islomiy qimmatli qog'ozlar, sukuk, kapital bozori, investitsiyalar, islom moliyasi tamoyillari, islomiy banklar, moliyaviy instrumentlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются перспективы развития рынка исламских ценных бумаг в Республике Узбекистан, существующие возможности и механизмы их эффективной реализации. Особое внимание уделено экономической сущности сукук, их роли и значению в международной практике. Исследованы ключевые направления формирования исламского рынка капитала в Узбекистане, включая дальнейшее совершенствование нормативно-правовой базы, развитие кадрового потенциала и института экспертов по исламским финансам, а также повышение уровня финансовой грамотности населения. На основе опыта Малайзии, Индонезии и Объединённых Арабских Эмиратов разработаны практические рекомендации по развитию рынка исламских ценных бумаг в Узбекистане.

Ключевые слова: исламские финансы, исламские ценные бумаги, сукук, рынок капитала, инвестиции, принципы исламских финансов, исламские банки, финансовые инструменты.

Abstract. This article examines the prospects for the development of the Islamic securities market in the Republic of Uzbekistan, available opportunities, and mechanisms for their effective implementation. Particular attention is paid to the economic nature of sukuk securities and their role in international financial markets. The study highlights key factors contributing to the formation of an Islamic capital market in Uzbekistan, including the further improvement of the legal framework, the development of qualified specialists and Islamic finance experts, and the enhancement of financial literacy among the population. Based on the experience of Malaysia, Indonesia, and the United Arab Emirates, practical recommendations have been developed to support the sustainable development of Islamic securities in Uzbekistan.

Keywords: Islamic finance, Islamic securities, sukuk, capital market, investments, Islamic finance principles, Islamic banking, financial instruments.

KIRISH

Jahon moliya tizimida so'nggi o'n yilliklarda islomiy moliya institutlari va moliyaviy instrumentlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda islomiy moliya nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki Buyuk Britaniya, Germaniya, Lyuksemburg, Singapur va Gonkong kabi rivojlangan davlatlarda ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Islomiy moliyaning asosiy afzalligi uning real aktivlarga asoslanishi, spekulativ operatsiyalarni cheklashi hamda moliyaviy munosabatlarda risklarni muvozanatli taqsimlashga xizmat qilishi bilan izohlanadi.



Aholisining katta qismi musulmonlardan iborat bo'lgan O'zbekistonda ham islomiy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj yildan-yilga ortib bormoqda. Mamlakatda bank-moliya tizimini diversifikatsiya qilish, investitsiyalar hajmini kengaytirish hamda xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvni yanada kuchaytirish maqsadida islomiy moliya instrumentlarini joriy etish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, islomiy qimmatli qog'ozlar – sukuklarni muomalaga chiqarish davlat va xususiy sektor uchun yangi investitsiya imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi.

Sukuk qimmatli qog'ozlari an'anaviy obligatsiyalardan farqli ravishda foiz mexanizmiga asoslanmaydi. Ular muayyan aktivlar, loyihalar yoki investitsiyalar bilan ta'minlangan bo'lib, investorlarning daromadi mazkur aktivlardan olinadigan foyda hisobidan shakllanadi. Shu bois sukuklar islom moliyasi tamoyillariga mos moliyalashtirish vositasi sifatida xalqaro amaliyotda keng qo'llanilib kelinmoqda.

O'zbekistonda islomiy moliyani rivojlantirish bo'yicha muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo'nalishda huquqiy asoslarni takomillashtirish, institutsional infratuzilmani rivojlantirish va yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, sukuk bozorini shakllantirish va emissiya amaliyotini yo'lga qo'yish mamlakat moliya bozorining istiqbolli rivojlanish yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa normativ-huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, malakali mutaxassislar va islom moliyasi ekspertlari salohiyatini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda islomiy qimmatli qog'ozlarni rivojlantirish istiqbollarini o'rganish, ilg'or xalqaro tajribalarni tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda islomiy qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilish, ushbu yo'nalishning ustuvor vazifalarini aniqlash hamda xorijiy tajribalar asosida bozorni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda islomiy moliya va islomiy qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish masalalari xalqaro miqyosda iqtisodchi olimlar, moliyaviy institutlar hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan keng o'rganilmoqda. Islomiy moliyaning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati haqidagi ilmiy qarashlar yildan-yilga boyib, ushbu yo'nalishning nazariy va amaliy asoslari tobora takomillashib bormoqda.

Islomiy moliyaning nazariy asoslarini shakllantirishda Muhammad Taqi Usmoniy, Zamir Iqbol, Abbas Mirakhor, Habib Ahmad va Rodney Wilson kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Ularning tadqiqotlarida islomiy moliya institutlarining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli, kapital bozorlarini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda sukuk instrumentlarining afzalliklari atroflicha yoritilgan.

Xalqaro Islomiy Moliya Xizmatlari Kengashi (IFSB) hamda Buxgalleriya va Audit Tashkilotlari uchun Islomiy Moliyaviy Institutlar Tashkiloti (AAOIFI) tomonidan ishlab chiqilgan standartlar bugungi kunda islomiy moliya bozorining muhim me'yoriy asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur standartlar sukuk emissiyasi, islomiy moliya nazorati, risklarni boshqarish hamda korporativ boshqaruv masalalarini samarali tartibga solishga xizmat qiladi.

Iqtisodchi olim Zamir Iqbolning ta'kidlashicha, islomiy moliya tizimining asosiy ustunligi moliyaviy operatsiyalarning real iqtisodiyot bilan bevosita bog'langanligida namoyon bo'ladi. Shu sababli islomiy moliyaviy instrumentlar iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash va uzoq muddatli rivojlanishga xizmat qilish imkoniyatiga ega.

Muhammad Taqi Usmoniy esa sukuklarni islomiy kapital bozorining eng muhim vositalaridan biri sifatida baholab, ular yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda samarali mexanizm bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, sukuk investor va emitent manfaatlari uyg'unligini ta'minlash orqali investitsion faollikni yanada rag'batlantiradi.

So'nggi yillarda Jahon banki va Islom Taraqqiyot Banki ekspertlari tomonidan ham islomiy moliyaning rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri keng ko'lamda tahlil qilinmoqda. Ularning xulosalariga ko'ra, islomiy moliya instrumentlarini joriy etish moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, investitsion resurslarni jalb qilish hamda kapital bozorlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham islomiy moliya va kapital bozori masalalari bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, islomiy bank xizmatlarini joriy etish, islom moliyasi tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda sukuk bozorini rivojlantirish masalalari yuzasidan muhim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda islomiy qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. Ayniqsa, sukuk bozorini shakllantirish, institutsional infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish masalalari kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bois mazkur sohada



chuqur ilmiy izlanishlarni davom ettirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini islomiy moliya va islomiy qimmatli qog'ozlar bozorining nazariy hamda amaliy jihatlariga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, umumlashtirish hamda ilmiy abstraksional usullardan foydalanildi. Shuningdek, islomiy moliya bozorida yetakchi o'rinlarni egallab kelayotgan Malayziya, Indoneziya, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi o'rganilib, ularning ilg'or amaliyotlari O'zbekiston sharoiti bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida xalqaro moliya institutlari, Islom Taraqqiyot Banki, IFSB, AAOIFI, Jahon banki hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va tahliliy materiallari o'rganildi. Olingan natijalar asosida O'zbekistonda islomiy qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi hamda ushbu bozorni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda jahon islomiy moliya sanoati dunyoning eng tez rivojlanayotgan moliyaviy sektorlaridan biri hisoblanadi. Global islomiy moliya aktivlari hajmi bir necha trillion AQSh dollariga yetgan bo'lib, uning muhim tarkibiy qismini islomiy qimmatli qog'ozlar – sukuk bozori tashkil etadi.

Sukuk arab tilidan tarjima qilinganda “sertifikat” yoki “guvohnoma” ma'nolarini anglatadi. Mazkur moliyaviy instrument investorning muayyan aktiv, loyiha yoki investitsiyadagi ulushini ifodalaydi. An'anaviy obligatsiyalardan farqli ravishda sukuk bo'yicha daromad foiz ko'rinishida emas, balki real iqtisodiy faoliyat natijasida yaratilgan qiymat va foyda asosida shakllanadi.

So'nggi yillarda Malayziya, Indoneziya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari va Bahrayn sukuk bozorini rivojlantirishda salmoqli natijalarga erishdi. Ayniqsa, Malayziya bugungi kunda dunyodagi eng yirik sukuk bozorlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakatda sukuklar davlat budjeti dasturlarini moliyalashtirish, transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirish hamda xususiy sektor investitsiyalarini rag'batlantirishda samarali qo'llanilmoqda.

Indoneziya tajribasi ham O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Mamlakat hukumati tomonidan muntazam ravishda davlat sukuklari chiqarilishi natijasida ichki va tashqi investitsiyalar hajmi sezilarli darajada kengaygan. Shu bilan birga, aholining moliyaviy tizimga bo'lgan ishonchi yanada mustahkamlangan.

O'zbekistonda ham islomiy moliyani rivojlantirish bo'yicha muhim tashabbuslar amalga oshirilmogda. Islomiy qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish va sukuk emissiyasi mexanizmlarini joriy etish mamlakat moliya bozorining istiqbolli rivojlanish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda huquqiy va institutsional infratuzilmani takomillashtirish bo'yicha keng imkoniyatlar mavjud.

Tahlillar natijasida O'zbekistonda islomiy qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlandi. Birinchidan, sukuk emissiyasi, islomiy moliya nazorati va islomiy investitsion faoliyatni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, islomiy moliya, sukuk va takaful yo'nalishlarida malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish zarur. Uchinchidan, islomiy moliya ekspertlari va maslahatchilarining institutsional salohiyatini oshirish bozorning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. To'rtinchidan, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va islomiy moliyaviy mahsulotlar bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini kengaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Beshinchidan, sukuk emissiyasi bo'yicha dastlabki loyihalarni amalga oshirish orqali milliy amaliy tajribani shakllantirish va investorlar ishonchini mustahkamlash mumkin.

Shu bilan birga, O'zbekiston islomiy qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Mamlakatda yirik infratuzilma loyihalarining amalga oshirilayotgani, investitsion resurslarga bo'lgan talabning ortib borayotgani hamda aholining islomiy moliyaga qiziqishi sukuk bozorini shakllantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda islomiy qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish nafaqat kapital bozorining yangi bosqichga ko'tarilishiga, balki mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha investitsiyalar jalb etilishiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, davlat infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, energetika, transport, qurilish va kommunal xizmatlar sohalariga uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilishda sukuk instrumentlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sukuk bozorining muvaffaqiyatli rivojlanishi, avvalo, mustahkam qonunchilik bazasi, malakali kadrlar, rivojlangan kapital bozori hamda investorlar ishonchiga bog'liq. Masalan,



Malayziyada sukuk bozorining muvaffaqiyati davlat tomonidan qabul qilingan maxsus qonunchilik hujjatlari, soliq rag'batlari va islomiy moliya nazorati institutlarining samarali faoliyati bilan izohlanadi.

Shuningdek, Birlashgan Arab Amirliklari va Bahrayn tajribasi shuni ko'rsatadiki, sukuk emissiyasi jarayonlarida xalqaro standartlarga rioya etilishi xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlaydi. Natijada ushbu davlatlar xalqaro kapital bozorlaridan milliardlab dollar investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb etishga erishgan. O'zbekiston sharoitida ham sukuk bozorini rivojlantirish maqsadida qator istiqbolli amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchiidan, islomiy moliya va islomiy qimmatli qog'ozlar faoliyatini tartibga soluvchi zamonaviy normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda sukuk emissiyasi, islomiy moliya nazorati, islomiy investitsiya fondlari hamda islomiy moliyaviy vositalarning huquqiy maqomini aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchiidan, davlat tomonidan dastlabki pilot loyiha sifatida suveren sukuklarni muomalaga chiqarish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu nafaqat ichki bozorda yangi moliyaviy instrumentlarning rivojlanishiga, balki xalqaro investorlar e'tiborini O'zbekiston kapital bozoriga yanada kengroq jalb qilishga xizmat qiladi.

Uchinchiidan, oliy ta'lim muassasalarida islomiy moliya va islomiy kapital bozori bo'yicha alohida ta'lim dasturlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Xususan, iqtisodiyot va moliya yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun sukuk, takaful, mudoraba, mushoraka va boshqa islomiy moliyaviy instrumentlar bo'yicha maxsus fanlarni o'qitish yuqori malakali kadrlar salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

To'rtinchiidan, xalqaro darajadagi islomiy moliya ekspertlarini jalb qilish hamda mahalliy mutaxassislarining kasbiy salohiyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu kelgusida mamlakatda mustaqil ekspertlik va maslahat institutlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Beshinchiidan, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan targ'ibot va tushuntirish ishlarini yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Islomiy moliya instrumentlarining iqtisodiy mazmuni va afzalliklari haqida keng qamrovli axborot berilishi investorlar faolligini oshirish va bozor infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oltinchiidan, Islom Taraqqiyot Banki, Xalqaro Islomiy Likvidlikni Boshqarish Korporatsiyasi (IILM), Islomiy Moliya Xizmatlari Kengashi (IFSB) va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu O'zbekistonning islomiy kapital bozorini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini yanada jadallashtirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi takliflarning amaliyotga joriy etilishi O'zbekistonda islomiy qimmatli qog'ozlar bozorining izchil rivojlanishiga, investitsion muhitning yanada yaxshilanishiga hamda mamlakat moliya tizimining raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi kunda jahon moliya bozorlarida islomiy moliya va islomiy qimmatli qog'ozlar bozori eng istiqbolli hamda jadal rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sukuk instrumentlari davlat va xususiy sektor uchun muhim investitsiya manbai sifatida keng qo'llanilmoqda. Ushbu moliyaviy vositalarning real aktivlarga asoslanganligi, islom moliyasi tamoyillariga muvofiqligi hamda risklarni muvozanatli taqsimlashga xizmat qilishi ularning jozibadorligini yanada oshirmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekistonda islomiy qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va institutsional imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi. Mamlakatda investitsion muhitni takomillashtirish, moliya bozorini diversifikatsiya qilish va xalqaro kapital oqimlarini jalb etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur bozorning rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratmoqda. Shu bilan birga, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, islomiy moliya bo'yicha malakali mutaxassislar va ekspertlar salohiyatini rivojlantirish, moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish hamda amaliy tajribani kengaytirish ushbu yo'nalishning istiqboldagi ustuvor vazifalari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, sukuk bozorining muvaffaqiyatli rivojlanishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xalqaro standartlarni joriy etish, islomiy moliya nazorati tizimini takomillashtirish hamda investorlar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bilan chambarchas bog'liq. Malayziya, Indoneziya, Birlashgan Arab Amirliklari va Bahrayn tajribasi sukuk instrumentlari orqali yirik investitsiya resurslarini safarbar etish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish hamda kapital bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkinligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda islomiy moliya va sukuk bozorini tartibga soluvchi zamonaviy qonunchilik bazasini shakllantirish, ilk suveren sukuk emissiyasini amalga oshirish, islomiy moliya bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish, milliy islomiy moliya ekspertlari kengashi faoliyatini yo'lga qo'yish, xalqaro islomiy moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish hamda investorlar va aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.



Umuman olganda, O'zbekistonda islomiy qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish mamlakat moliya bozorining diversifikatsiyalanishiga, xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirishga, yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishga hamda barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishni izchil rivojlantirish O'zbekistonning xalqaro moliya bozorlaridagi integratsiyasini kuchaytirish, investitsion jozibadorligini oshirish va zamonaviy moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirakhor A., Iqbal Z. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. – Singapore: John Wiley & Sons, 2011. – 315 p.
2. Usmani M.T. An Introduction to Islamic Finance. – Karachi: Maktaba Ma'ariful Qur'an, 2002. – 214 p.
3. Iqbal Z., Mirakhor A. Islamic Finance: Opportunities, Challenges and Policy Options. – Washington, DC: World Bank, 2015. – 198 p.
4. Wilson R. Islamic Capital Markets: Emerging Opportunities and Challenges. – London: Euromoney Books, 2014. – 287 p.
5. Hassan M.K., Lewis M.K. Handbook of Islamic Banking. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2007. – 423 p.
6. Islamic Financial Services Board (IFSB). Islamic Financial Services Industry Stability Report. – Kuala Lumpur, 2024.
7. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). Sharia Standards. – Manama, Bahrain, 2023.
8. Islamic Development Bank. Islamic Finance and Sustainable Development Report. – Jeddah, 2024.
9. World Bank. Global Economic Prospects and Islamic Finance Development Report. – Washington, DC, 2024.
10. Securities Commission Malaysia. Islamic Capital Market: Strategic Framework. – Kuala Lumpur, 2023.
11. Karimov F., Ashurov Z. Islomiy moliyani rivojlantirishning nazariy asoslari // Iqtisodiyot va ta'lim. – Toshkent, 2022. – № 4. – B. 55–63.
12. Ashurov Z. Reforming Corporate Governance and Financial Markets in Uzbekistan // SAARJ Journal on Banking & Insurance Research. – 2017. – Vol. 6. – No. 1. – P. 44–55.
13. Elmirezayev S.E. Moliyaviy bozorlar. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 412 b.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
15. Islom Taraqqiyot Banki. Markaziy Osiyoda islomiy moliya bozorlarini rivojlantirish istiqbollari bo'yicha tahliliy hisobot. – Jidda, 2023.
16. International Monetary Fund (IMF). Islamic Finance and Financial Stability. – Washington, DC, 2022.
17. Thomson Reuters & ICD. Islamic Finance Development Report. – Dubai, 2024.
18. Asian Development Bank. Capital Market Development in Central Asia. – Manila, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>